

Sirkulyar iqtisodiyotga o'tishda raqamlashtirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, resurs samaradorligini oshiradi, ekologik muammolarni kamaytiradi va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi. Biroq, raqamlashtirish jarayonini muvozanatli va samarali boshqarilishi zarur. Milliy iqtisodiyoti uchun raqamli texnologiyalarni sirkulyar mexanizmlar bilan integratsiya qilish barqaror rivojlanishning yangi bosqichini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akarsu, T.N. (2023). Digital transformation towards a sustainable circular economy. *Journal of IT Teaching Cases*.
2. Barteková, E., & Börkey, P. (2022). Digitalisation for the transition to a resource efficient and circular economy. OECD. <https://doi.org/10.1787/6f6d18e7-en>
3. Barteková, E., & Börkey, P. (2022). Digitalisation for the transition to a resource efficient and circular economy. OECD. <https://doi.org/10.1787/6f6d18e7-en>
4. European Commission (2024). Circular economy research and innovation.
5. Nature Scientific Reports. (2025). Circular economy, digitalization and carbon neutrality.
6. ScienceDirect. (2022–2023). Circular economy and digital transformation studies.
7. Technology in Society (2022). Digitalization and circular economy relationship.
8. OECD (2025). The Circular Economy in Cities and Regions of the European Union.
9. OECD (2023). Digitalisation and the environment.
10. Şentürk, Ö. (2025). Digitalization of the Circular Economy in the European Union. Opportunities and Challenges in Sustainability.
11. World Economic Forum. (2022). Digitalization and circular economy ecosystem.

Malika TOSHPULATOVA,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi stajyor o'qituvchisi,
Abdurrohman ABDUROUPOV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi

KO'P TOMONLAMA SAVDO TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHUV SHAROITIDA MILLIY VA MAHALLIY TURIZMNI KLASTERLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu tezisdan milliy turizm industriyasini modernizatsiya qilishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini tizimli tahlil qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda jahon turizm bozorida yetakchi davlatlarning institutsional boshqaruv modellari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va hududiy turizm brendingini shakllantirish bo'yicha tajribalarini O'zbekiston

iqtisodiyotiga tatbiq etish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit soʻzlar: *turizm, turizm industriyasi, turistik xizmatlar, raqobatbardoshlik, turkiya modeli, turistik infratuzilma, turistik klasterlar, ziyorat turizmi.*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются вопросы системного анализа опыта развитых стран в модернизации национальной туристической индустрии. Исследование научно обосновывает возможности применения моделей институционального управления, механизмов государственно-частного партнерства и опыта регионального туристического брендинга ведущих стран мирового туристического рынка к экономике Узбекистана.*

Ключевые слова: *Туризм, индустрия туризма, туристические услуги, конкурентоспособность, турецкая модель, туристическая инфраструктура, туристические кластеры, паломнический туризм.*

Abstract. *This thesis considers the issues of systematic analysis of the experience of developed countries in the modernization of the national tourism industry. The study scientifically substantiates the possibilities of applying the institutional management models, public-private partnership mechanisms and regional tourism branding experiences of leading countries in the world tourism market to the economy of Uzbekistan.*

Keywords: *Tourism, tourism industry, tourism services, competitiveness, Turkish model, tourism infrastructure, tourism clusters, religious (pilgrimage) tourism.*

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotida turizm sohasi mamlakatlarning barqaror iqtisodiy oʻsishini taʼminlovchi, xizmatlar eksportini diversifikatsiya qiluvchi va yangi ish oʻrinlari yaratuvchi strategik drayverlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jahon turizm bozori raqobatning keskinlashuvi va raqamli texnologiyalarining jadal kirib kelishi bilan xarakterlanmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro savdo tizimiga chuqur integratsiyalashuvi, xususan, JSTga aʼzo boʻlish va mintaqaviy iqtisodiy tuzilmalar (YEOD) bilan hamkorlikni kengaytirish sharoitida, milliy va mahalliy turizm bozorining raqobatbardoshligini oshirishda rivojlangan mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasini tizimli oʻrganish va adaptiv tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston ulkan turistik-rekreatsioon salohiyatga ega boʻlishiga qaramay, mahalliy turizm infratuzilmasini boshqarish, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va hududiy turistik mahsulotlarni global bozorda brend sifatida tanitish borasida hali oʻz yechimini kutayotgan qator tizimli muammolar mavjud.

Jahon tajribasi shuni koʻrsatadiki, turizm sohasini qisqa muddatda iqtisodiy oʻsish drayveriga aylantirgan davlatlar orasida Turkiya modeli alohida oʻrin tutadi. Ushbu muvaffaqiyatning asosi 1980-yillarda boshlangan institutsional islohotlar va “Turizmni ragʻbatlantirish qonuni” (Law for the Encouragement of Tourism) bilan bogʻliqdir. Turkiya tajribasining oʻziga xosligi shundaki, davlat investorlarga nafaqat soliq imtiyozlari berdi, balki strategik turistik hududlarda yer resurslarini 49 yilgacha boʻlgan muddatga imtiyozli ijara huquqi asosida taqdim etdi. Bu mexanizm Oʻzbekiston sharoitida, ayniqsa, erkin turistik zonalarini tashkil etishda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni (TXI) jalb qilishning samarali vositasi boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Turkiya turizm industriyasining raqobatbardoshligi uning global transport xablari (hub) bilan chambarchas bogʻliqligidadir. Turkiya tajribasi shuni isbotladiki, “Turkish Airlines” kabi kuchli milliy aviatashuvchining mavjudligi va aeroportlar

infratuzilmasining modernizatsiyasi turizm oqimini diversifikatsiya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning JSTga a‘zoligi va YEOII doirasidagi integratsiyasi sharoitida, Turkiyaning “Ochiq osmon” (Open Skies) siyosati elementlarini tatbiq etish transport xarajatlarini (transaction costs) sezilarli darajada kamaytiradi. Bu, ayniqsa, mintaqaviy integratsiya doirasida Markaziy Osiyo bo‘ylab “kombinatsiyalashgan turistik marshrutlar”ni yaratishda makroiqtisodiy ustunlik beradi.

Turkiya tajribasining yana bir muhim jihati - xizmatlar sifatini doimiy ravishda xalqaro standartlarga (ISO, Safe Tourism Certification) muvofiqlashtirib borishidir. JSTning Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuvi (GATS) talablari doirasida O‘zbekiston turizm bozorini liberallashtirish Turkiyaning servis sifatini boshqarish modelidan andoza olishni taqozo etadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida turistik xizmatlarni yagona elektron platformalarga integratsiyalash, mehmonxona va servis obyektlarini xalqaro reyting tizimlari bilan muvofiqlashtirish milliy turistik mahsulotning jahon bozoridagi “ishonch indeksi”ni oshiradi.



1-rasm. Integratsiya sharoitida O‘zbekiston turizm sektorini modernizatsiya qilish²⁵¹

Turkiyaning Kapadokiya yoki Antaliya misolidagi klasterli yondashuvi hududiy turizmni rivojlantirishning mukammal namunasidir. Bunda har bir hudud o‘zining rekreatsion yoki tarixiy o‘ziga xosligidan kelib chiqib, alohida iqtisodiy subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ushbu tajribani qo‘llash mahalliy turizm bozorida xizmatlar diversifikatsiyasini (ziyosat, ekoturizm, tibbiy turizm) ta‘minlaydi. Integratsiya jarayonlari doirasida xalqaro marketing strategiyalarini Turkiya tajribasi asosida “hududiy brending” (Place Branding) konsepsiyasi bilan uyg‘unlashtirish mahalliy turizm salohiyatini global darajaga olib chiqish imkonini beradi.

Tahlillar natijasida integratsiya sharoitida O‘zbekiston turizm sektorini modernizatsiya qilish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Institutsional darajada: Turkiya tajribasiga tayangan holda, turizm sohasidagi investitsion kafolatlarni JSTning TRIMS bitimi normalari bilan uyg‘unlashtirish va strategik investorlar uchun “soliq ta‘tillari” mexanizmini takomillashtirish.

Infratuzilma darajasida: Mintaqaviy integratsiya doirasida transport-logistika xablarini rivojlantirish va aviatsiya bozorini xalqaro loukosterlar uchun liberallashtirish orqali turistik paketlar tannarxini 15-20% ga tushirishga erishish.

Sifat va marketing darajasida: Mahalliy turistik destinatsiyalarni boshqarishda

²⁵¹ Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

DMO (Destination Management Organization) modelini joriy etish va milliy servis standartlarini xalqaro ISO mezonlariga majburiy o'tkazish.

Ikki tomonlama turizm aloqalarining o'sishida transport-logistika integratsiyasi hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bugungi kunda "Uzbekistan Airways" va "Turkish Airlines"dan tashqari, bir qator xususiy aviakompaniyalar haftasiga 60 dan ortiq muntazam reyslarni amalga oshirmoqda. Bu ko'rsatkich nafaqat sayyohlar oqimini, balki integratsiya sharoitida xizmatlar savdosining (Service Trade) iqtisodiy samaradorligini ham oshirmoqda.

Bundan tashqari, Turkiyaning yirik qurilish va boshqaruv kompaniyalari O'zbekistondagi zamonaviy turistik klasterlar va mehmonxona majmualari barpo etilishida faol ishtirok etmoqda. Bu esa Turkiya tajribasidagi "servis standartlari"ning milliy bozorimizga transfer qilinishini ta'minlamoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining tashqi dunyoga ochiqligi va integratsiya jarayonlari sharoitida Turkiya Respublikasi bilan turizm sohasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki davlat o'rtasidagi madaniy-tarixiy yaqinlik, viza tartibining bekor qilinishi hamda aviaqatnovlarning liberallasuvi xizmatlar savdosi hajmining keskin ortishiga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda ikki mamlakat o'rtasidagi sayyohlar almashinuvi barqaror o'sish dinamikasini namoyish etmoqda. Statistika agentligi va sohaviy vazirliklar ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya O'zbekistonga eng ko'p turist yuboruvchi uzoq xorij davlatlari orasida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

Turkiyadan O'zbekistonga keluvchilar: 2022-yilda ushbu ko'rsatkich taxminan 75 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib 100 ming nafardan oshdi. 2024-2025-yillar oralig'ida esa Turkiyalik sayyohlar soni yillik 120-175 ming nafarga yetdi. Turkiyalik sayyohlar uchun O'zbekiston asosan "Ziyorat turizmi" markazi (Samarqand, Buxoro, Toshkent) sifatida jozibador hisoblanadi.

Xalqaro xizmatlar savdosi va transchegaraviy sayyohlar oqimini makroiqtisodiy baholashda uzoq muddatli dinamik qatorlarni (time series) o'rganish tarmoqning barqarorlik tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Turkiya Respublikasidan O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelgan va rasmiy deklaratsiyadan o'tgan chet el fuqarolari sonining 10 yillik (2016–2025-yillar) dinamikasi mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatidagi konyuktura o'zgarishlarini yaqqol ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan Turkiya fuqarolari sonining taqsimoti (rasmiy deklaratsiyadan o'tganlar)²⁵²

Davlat	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Turkiya	39727	48371	41299	63539	20958	44168	75559	106516	118838	174858

Ushbu 10 yillik empirik ma'lumotlarning iqtisodiy va tarkibiy talqini tahlil qilinayotgan davrni uchta asosiy makroiqtisodiy bosqichga ajratish imkonini beradi:

2016-yilda Turkiyadan kelgan turistlar soni 39 727 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 63 539 kishiga yetgan (o'sish 1,6 barobar). Ushbu davrdagi o'sish trayektoriyasi O'zbekistonda turizm sohasini boshqarish tizimining

²⁵² Muallif tomonidan stat.uz taqdim etgan statistik ma'lumotlari asosida tizimlashtirildi.

tubdan isloh qilinishi, Turkiya fuqarolari uchun viza tartibining soddalashtirilishi va keyinchalik butunlay bekor qilinishi (30 kunlik vizasiz rejim) kabi institutsional omillarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri samarasidir.

2020-yilda global miqyosda kuzatilgan COVID-19 pandemiyasi va uning oqibatida joriy etilgan qat’iy lokdaun choralari xalqaro xizmatlar savdosiga keskin salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada, Turkiyadan keluvchi sayyohlar oqimi 20 958 kishiga tushib, 2019-yilga nisbatan 67 foizga qisqardi. Bu ko‘rsatkich turizm sektorining ekzogen (tashqi) shoklarga nisbatan yuqori darajada sezgirligini iqtisodiy jihatdan tasdiqlaydi.

2021-yildan boshlab xalqaro aviaqatnovlarning qayta tiklanishi va ikki tomonlama strategik sheriklik aloqalarining yangi bosqichga chiqishi hisobiga turistik oqimda “keskin yuksalish” (exponential growth) tendensiyasi kuzatildi.

2023-yilda tariqda ilk bor Turkiyadan kelgan turistlar soni 100 minglik dovonidan o‘tib, 106 516 kishini tashkil etdi.

2025-yil yakunlariga ko‘ra esa bu ko‘rsatkich rekord darajaga – 174 858 kishiga yetdi. Bu 2016-yildagi bazaviy ko‘rsatkichga nisbatan 4,4 barobardan ziyod o‘shish demakdir.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, so‘nggi besh yillikdagi (2021–2025-yy.) barqaror o‘shish O‘zbekiston aviatsiya bozorining liberallashtirishi (lougosterlarning kirib kelishi), transport xarajatlarining nisbiy pasayishi hamda O‘zbekistonning xalqaro bozorlarda, xususan Turkiya iqtisodiy makonida “Ziyorat turizmi” va “Madaniy-ma’rifiy turizm” brendi ostida faol marketing qilinishi natijasidir.

O‘zbekistondan Turkiyaga boruvchilar: O‘zbekistonlik sayyohlar uchun Turkiya eng ommabop xalqaro yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Har yili o‘rtacha 450-500 ming nafar vatandoshimiz rekreatsion, madaniy va ishbilarmonlik maqsadlarida Turkiyaning Istanbul, Antaliya va Bodrum kabi shaharlariga safar qilmoqda (2-jadval).

2020-yilda global pandemiya va transport cheklovlari sababli umumiy ko‘rsatkich minimal darajada (62,7 ming kishi) bo‘lgan bo‘lsa, 2021–2022-yillarda keskin o‘shish kuzatilgan. Ayniqsa, 2022-yilda jami oqim o‘zining cho‘qqi nuqtasiga chiqib, 305,9 ming kishini tashkil etgan. Bu makroiqtisodiyotdagi "kechiktirilgan talab" (pent-up demand) va savdo aloqalarining qayta tiklanishi oqibatidir.

2-jadval

Turkiya davlatiga ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining taqsimlanishi, ming kishi²⁵³

Gender tarkibi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Ayollar ²⁵⁴	33,9	96,3	163	102,5	127,8	158,9
Erkaklar ²⁵⁵	28,8	77,8	142,9	85,2	102,2	110,0

2023-yilda oqimning ma’lum ma’noda pasayishi (187,7 ming kishi) kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yildan boshlab barqaror institutsional o‘shish trayektoriyasiga olingan. 2025-yil yakuniga ko‘ra, Turkiyaga ketgan umumiy fuqarolar soni 268,9 ming kishiga yetgan. Bu o‘shish ikki davlat o‘rtasidagi aviatsiya bozorining liberallashtirishi va

²⁵³ Stat.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

²⁵⁴ <https://lib.stat.uz/uz/features/turmush-darajasi-va-ijtimoiy-soha>

²⁵⁵ <https://lib.stat.uz/uz/features/turmush-darajasi-va-ijtimoiy-soha>

transport xablarining kengayishi bilan bevosita bog'liq.

Tahlil qilinayotgan barcha yillarda Turkiya yo'nalishida ayollar ulushining erkaklarga nisbatan barqaror ravishda yuqoriligi diqqatga sazovordir. Xususan, 2022-yilda ayollar oqimi (163 ming) erkaklarga (142,9 ming) qaraganda sezilarli darajada ko'p bo'lgan. 2025-yilga kelib esa bu farq yanada kengaygan: jami oqimning 59,1 foizini (158,9 ming kishi) ayollar, 40,9 foizini (110 ming kishi) esa erkaklar tashkil etgan.

Makroiqtisodiy va tarkibiy nuqtayi nazardan bu nomutanosiblik Turkiya yo'nalishida nafaqat an'anaviy mehnat migratsiyasi (erkaklar ustunlik qiladigan sektorlar), balki shopping (savdo) turizmi, xizmat ko'rsatish sohasi va rekreatsion turizm segmentlarida ayollar faolligining yuqoriligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi turizm aloqalari integratsiya jarayonlarining amaliy ifodasidir. Turkiyalik sayyohlar oqimining ko'payishi mamlakatga valyuta tushumlarini oshirish bilan birga, O'zbekistonning xalqaro ziyorat turizmi xabi sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlaydi. Ikki davlat o'rtasidagi ushbu munosabatlar milliy turizm industriyasini modernizatsiya qilishda muhim tajriba va resurs manbai bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abuseridze G., Agapova O., Petrova M. WTO and the future of global business tourism: Trends and challenges //Shifts in Knowledge Sharing and Creativity for Business Tourism. – 2024. – C. 264-280.

2. Canton H. World tourism organization–UNTourism //The Europa directory of international organizations 2021. – Routledge, 2021. – C. 393-397.

3. Joshi R. M., Malhotra S. Impact of WTO on growth and development of international tourism //Transnational Corporations Review. – 2014. – T. 6. – №. 3. – C. 290-303.

4. Ermukhamedovna E.A., Bolatovich E.A. The role of International organizations (UN, WTO, UNTourism) in the formation of the legal regime of tourism //Universal Science Perspectives International Scientific Practical Journal. – 2025. – T. 1. – №. 1.

5. Sobirjonovich A.Z. Turizm infratuzilmasi rivojlanishida turistik klasterlarning ahamiyati //Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. – 2025. – T. 2. – №. 10. – C. 100-104.

6. Ruxsora U. O'zbekiston turizm statistikasi //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 401-404.

7. Toshtemirovich M.Z. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish: imkoniyatlar va strategiyalar //Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 3. – C. 40-43.